**O‘ZBEKISTON REPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

# “O‘ZBEK XALQ MUSIQA SAN’ATI VA IJODIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI, ZAMONAVIY TARAQQIYOT TENDENSIYALARI”

**mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari**

**2023-yil 23-sentabr**

**Бухоро – 2023**

O‘zbek xalq musiqa san’ati va ijodiyotining tarixiy ildizlari, zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari” // Mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani. Buxoro “Durdona” nashriyoti, 2023.

**Anjumanning dasturiy qo‘mitasi**

| | |
|---|---|
| O.X. Xamidov | BuxDU Universitet rektori, rais; |
| T.H. Rasulov | BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini; |
| A.R. Zokirov | O‘zMMSI O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor |
| F.N.Nurulloyev | Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i |
| S.S.Azimov | BuxDU San’atshunoslik fakulteti dekani. |
| T.I. Rajabov | BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi mudiri. |
| D.Yu.Ro‘ziyev | Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi professori, a’zo; |
| B.I.Mustafoyev | Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi dotsenti, a’zo; |
| O.M.Axmedova | Yu.Rajabiy O‘zMMSI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f.f.n., professor v.b |
| A.S.Sunatillayev | Yu.Rajabiy O‘zMMSI O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo’lim boshlig’i. |

**Anjumanning tashkiliy qo‘mitasi:**

| | | |
|---|---|---|
| 1. | T.H. Rasulov | BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais; |
| 2. | O.I. Karimov | BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi dotsenti; |
| 3. | O‘.U. Rashidov | BuxDU Moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektor, a’zo; |
| 4. | F.N. Nurulloyev | BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a’zo; |
| 5. | Sh.B.Nurlibayevna. | Yu.Rajabiy O‘zMMSI “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasi mudiri |
| 6. | T.I. Rajabov | BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi mudiri. |
| 7. | R.I.Oripova | Yu.Rajabiy O‘zMMSI O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi mudiri |
| 8. | Sh.X.Kamolov | BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi katta o’qituvchisi, a’zo; |

**Mas’ul muharrir:**

| | |
|---|---|
| B.I.Mustafoyev | Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi dotsenti |

**Taqrizchi:**

| | |
|---|---|
| D.Yu.Ro‘ziyev | Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi professori |

## MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI O‘QITISHDA FANLARARO ALOQADORLIK (“ONA TILIM” QO‘SHIG‘INI O‘RGATISH MISOLIDA)

**Hasanov Halim Ravshanovich**
**BuxDU, San’atshunoslik fakulteti, Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi**

O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligiga 34 yil bo‘lganligi munosabati bilan 21 oktyabrda yurtimizning barcha joylarida, shuningdek maktab va boshqa o‘quv muassasalarida til bayrami, uchrashuv va tadbirlar o‘tkaziladi. Musiqa, o‘qish va ona tili hamda boshqa tabiiy fanlar doirasida fanlararo aloqadorlikda ona tilimiz milliyligi, ravnaqiga bag‘ishlab, tadbirlar o‘tkaziladi. Har bir millatning o‘z til boyligi bo‘lgani kabi o‘zbek tili ham o‘zbek millatining eng sevgan she’r-u, g‘azalga nasr-u, masalga boy bo‘lgan o‘z tilidir.

Milliy tilimiz hisoblangan o‘zbek tiliga buyuk bobokalonimiz, she’riyat mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy asos solgan. O‘zbek tilida she’r-u doston g‘azallar yozgan. Ona tilimiz sha’nini butun dunyoga mashhur tillar qatorida targ‘ib qilib, o‘lmas asarlar yaratgan.

Buni 3-sinf musiqa darsligi (21-23 betlar) “Ona tilim” qo‘shig‘ini o‘tish misolida ko‘rish mumkin . Vals tempida kuylanadigan bu qo‘shiq A.Haydarov musiqasi va she’ri. O‘qituvchi mavzuni doskaga yozib, o‘quvchilaga she’rni tinish belgilari va intonatsiyasiga rioya qilgan holda o‘qib beradi. Musiqa notalariga amal qilgan holda qo‘shiq vals tempida kuylanadi. Qo‘shiqning har bir bandining mazmuni va o‘zbek tili haqida tushuncha beriladi.

| | |
|---|---|
| 1.Shirin qand-u asalsan, | Naqarot. |
| She’r-u g‘azal masalsan, | Ona tilim, o‘zbek tilim, jon tilim, |
| Hamma tillardan a’lo, | Nazm-u nasr bilimlarga kon tilim. |
| Chiroylisan go‘zalsan. | |

O‘zbek tili boy va go‘zal ma’nolarga ega ekan. Bu tilda to‘g‘ri so‘zlash, hatto yozuvga ham undagi so‘zlarni ona tilida belgilab berilgan qoidalarga, uning grammatik uslublariga rioya qilgan holda, xatosiz yozish kerak.

| | |
|---|---|
| Men senga o‘quvchiman, | Naqarot |
| Ma’nolar uquvchiman. | Ona tilim, o‘zbek tilim, jon tilim, |
| So‘zlarning ummonidan, | Nazm-u nasr bilimlarga kon tilim. |
| Dur gavhar topuvchiman. | |

Kishining libosi ko‘rkam va o‘ziga yarashiqli bo‘lgani kabi yozuv ham tilning libosidir. Har bir tilning yozuvi uning o‘ziga favqulodda mos va muvofiq bo‘lmog‘i lozim. Shundagina yozuv tilning tabiiy va tarixiy taraqqiyotiga halaqit bermaydi. Tilning tugal tozaligi-yu, oydin ohangdorligiga putur yetkazmaydi. Shu narsa cho‘ng haqiqatni, yozuv insoniyat erishgan, eng buyuk yutuqlardan biridir. Bir necha yillik kishilik tarixi to‘plangan ulkan va ulug‘ bilimlar asrlar chig‘irig‘idan o‘tib, haqiqat isbotini olgan. Tengsiz tajribalar kishilar qalbini batamom rom aylagan falsafiy tafakkurning cheksiz chechaklari, go‘zallik, estetik va nafosat olamining gultoji bo‘lgan qimmati oltinga teng musiqa asarlari bizga yozuv orqali nasib bo‘lgan. Kimgadir juda ham yarashgan libos boshqa birovga mutlaqo yarashmasligi tabiiy. Yozuv ham shunga o‘xshash. Bir til uchun o‘ta muvofiq kelgan yozuv boshqa tilga mos kelmasligi mumkin.

Zamon muayyan yozuv dastlab paydo bo‘lishidayoq muayyan bir tilning tovush xususiyatlariga asoslanadi.

| | |
|---|---|
| Navolarim o‘zbekcha, | Naqarot. |
| Sadolarim o‘zbekcha, | Ona tilim, o‘zbek tilim, jon tilim. |
| Jo‘shib kuylayman qo‘shiq, | Nazm-u nasr bilimlarga kon tilim. |
| Yayrab ko‘nglim to‘lguncha. | |

Qo‘shiqni kuylayotganda uni vals tempida ijro etib, naqarot qismlarga ham e’tibor berish kerak. Musiqa darsida „Ona tilim” qo‘shig‘i fanlararo aloqadorlikda o‘tilishi o‘quvchilarning musiqa va ona tiliga bo‘lgan qiziqishi hamda ularning bilim saviyasini yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ona tilimizning qudrati qanday kuchga ega ekanligi haqida o‘quvchilarga tushuncha berilar ekan quyidagi muhim sanalarni yodda saqlab, unga sodiq qolgan holda amal qilishlari kerakligi uqtiriladi.

1. 1989 – yil, 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.
2. Konstitutsiyamizning 4-moddasiga ko‘ra O‘zbekistonda davlat tili o‘zbek tilidir.
3. Ona tilimiz boy merosga ega.
4. Buyuk allomalar asarlarida ona tilimiz ulug‘langan.
5. O‘zbek tili bizning ona tilimizdir.
6. Musiqa darslarida ona tilimizda kuylaymiz.
7. Musiqalarimizda o‘zbekona milliylik bor.

O‘quvchilar musiqa darsida berilgan qo‘shiqlarni o‘rganishi va kuylash vositasida qo‘shiq so‘zlarini to‘g‘ri talaffuz qilish bilan birga so‘zlarni to‘g‘ri yozib, nutqdan tilga qarab borsalar, bu o‘zbek tilining qimmatini yanada oshiradi.

Musiqa darslarida til mashg‘ulotlarini shunday tashkil etilganda shaxsiy, milliy, madaniy va estetik umuminsoniy qadriyatlarni kamol toptirishga, ijodkorlikka fahm-farosat, zehn, xotirani o‘stirishga musiqani estetik va nafosatli tushunishga, bilimdonlikka olib keladigan vositaga aylanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. “Musiqa” Toshkent 2022 yil 21-23 betlar
2. “Boshlang‘ich ta’lim” Toshkent 2010 yil, 6-son
3. “Til va adabiyot ta’limi” Toshkent 2007 yil, 2-son


## “O‘QUVCHILARDA MUSIQA DARSLARI VOSITASIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI”


**Matyakubova Umida Gayibayevna**

**Matyakubov Ergash G`ayibayevich**

UrDU Pedagogika fakulteti

San’at kafedrasi o‘qituvchilari



**Annotatsiya**

Pedagogikada musiqa san’ati bolaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning muhim va samarali vositasidir. Yosh bolalarni ajoyib musiqa olami bilan tanishtirish, uning asosida ezgu tuyg‘ularni tarbiyalash, axloqiy fazilatlarni singdirish – naqadar savobli va ayni paytda muhim vazifa! “Axloq” tushunchasiga shaxsni boshqaradigan ichki, ma’naviy sifatlar va shu sifatlar bilan belgilanadigan xulq-atvor qoidalarining axloqiy me’yorlari kiradi.

**Annotation**

In pedagogy, musical art is an important and effective means of educational influence on a child. Acquainting young children with the world of wonderful music, raising good feelings based on it, instilling moral qualities - what a rewarding and important task! The concept of "ethics" includes the internal, spiritual qualities that govern a person and the moral norms of the rules of behavior determined by these qualities.

**Аннотация**

В педагогике музыкальное искусство является важным и эффективным средством воспитательного воздействия на ребенка. Знакомить маленьких детей с миром чудесной музыки, воспитывать на ее основе добрые чувства, прививать нравственные качества – какая благодарная и важная задача! В понятие «этика» входят внутренние, духовные качества, управляющие человеком, и моральные нормы правил поведения, определяемые этими качествами.



**Kalit so‘zlari:** umuminsoniy tamoyillar, axloqiy tarbiya, xalq musiqasi, doston, musiqiy ohang, bastakor, kompozitor.

T.D.Muxamedov, Samandarova Madina G‘ayrat qizi. BAXSHICHILIK SAN’ATI – UMUMINSONIY QADRIYAT........62
Hayitov Zafar Soatovich. Qashqadaryo-Surxondaryo doston ijrochilik an’analari........64
Umurova Ma‘rifat Yoshiyevna. Xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida........67
Ayapov Salamat Baxiyevich. Qobiz saz áspabi haqqinda ańiz ápsanalar........71
Samiyeva Mehriniso Azimovna. Musiqiy ta’lim jarayonida mahalliy “Buxoro ijrochilik uslubi”ni o‘rgatishning o‘ziga xosligi........73
Д.Н.Обидов. МУСИҚИЙ МЕРОС ВА ЖОНЛИ УРФ-ОДАТЛАР........75
Abdumannatova Aziza Abdumajit qizi. BO`LAJAK MUSIQA O`QITUVCHILARIDA XALQARO MAQOM, BAXSHICHILIK, FOLKLOR SAN’ATI VOSITASIDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH........77
Ozoda Latipova, Karimov Saxob. MUSIQA MADANIYATI TARIXI XALQIMIZ O‘TMISH TARIXINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA........80
Rahimov Oybek Takilovich. Rubobda ijro etish mahoratini rivojlantirish usullari........83

**3-SHO‘BA. OLIY VA UMUMTA’LIM TIZIMIDA MUSIQA MADANIYATI TA’LIMINING TARAQQIYOT TENDENSIYALARI........85**
Ro‘ziyev D.Yu. Musiqa o‘qituvchisining muloqot san’ati, tashkilotchilik qobiliyati va tadqiqot ko‘nikmalarini egallashi........85
E.K.Djalilov. XALQ QO‘SHIQLARI ORQALI O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH........88
B. Mustafoyev. MAKTABDA MUSIQIY-PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH VA SAMARALI BOSHQARISHDA FAN O‘QITUVCHISINING FAOLIYATI........90
Sh.N.Omanqulova. BO‘LAJAK MUSIQA TA’LIMI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI CHOLG‘U IJROCHILIGI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH........92
G.M.Davronova. Musiqiy ta'lim-tarbiyasi vositasida shaxs ma'naviy salohiyatini shakllantirish va takomillashtirishning ijtimoiy mexanizmlari........94
Nurullayev F.G. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY FAOLIYATI97
Oripova Ra’no Ibrohimovna. O‘QUV-TARBIYA JARAYONIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR USTUVORLIGINING MOHIYATI........100
Ходжаев Б.Қ., Ходжаев Б.Б. Мусиқа маданияти таълими воситасида ўқувчиларда ватан ифтихори туйғусини шакллантиришнинг айрим йўллари........104
I. F.Qayumov. YOSHLAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQANING ADABIYOT BILAN BOG‘LIQLIGI........106
Ramazonova O‘g‘iloy Xolmurodovna. Musiqiy-pedagogik jarayon va ta’lim-tarbiya masalalari........107
Mirshayev Ulug’bek Muzafarovich. MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISHDA TALABALARNING KREATIV YONDASHUVI........109
VYST CHOLG‘U IJROCHILIGI MASHG‘ULOTLARIDA TA’LIM VA TARBIYANING MUSHTARAKLIGI Hamroqulov N. B.........112
Hasanov Halim Ravshanovich. Musiqa madaniyati darslarini o‘qitishda fanlararo aloqadorlik (“Ona tilim” qo‘shig‘ini o‘rgatish misolida)........114
Matyakubova Umida Gayibayevna, Matyakubov Ergash G`ayibayevich. “O‘QUVCHILARDA MUSIQA DARSLARI VOSITASIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI”........115
Imomnazarova Aziza Rustamovna, Hamrayeva Umida Shonazarovna. MAKTAB MUSIQA TA’LIMIDA FORTEPIANO CHALISHGA O‘RGANISH USLUBLARI........117
Musurmonova Durdona Shukur qizi, Hamrayeva Umida Shonazarovna. FORTEPIANO SINFIDA MUSIQA ASARI USIDA ISHLASHNING ASAOSIY VAZIFALARI........119
Hamrayeva Umida Shonazarovna. FORTEPIANO MASHG‘ULOTLARIDA ANSAMBLLIK USTIDA ISHLASH USLUBLARI........121